

O'ZBEKISTONDA SPORT EKSTRIMAL TURIZMINI RIVOJLANTIRISH VA O'ZGARUVCHAN TURISTLARNI DOIMY TURISTLARGA AYLANTIRISH CHORA-TADBIRLARI

Mamadaliyev Sardorbek Abduraxmonovich

Oriental universiteti katta o'qituvchi.

Yallaqayev Zokir Yusupovich

Oriental universiteti magistrant.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14565157>

Annotatsiya. Maqolada O'zbekistonga tashrif buyuradigan turistlar statistikasi haqidagi ma'lumotlar, ekstrimal turizmni turlari va ularni rivojlantirishga qaratilgan chora tadbirlar, o'zgaruvchan turistlarni doimiy turistlarga aylantirishdagi o'ziga xos yondashuvlar va boshqa shu bilan bog'liq ekstrimalni turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan masalar yoritib berilgan.

Tayanch so'zlari: ekstrimal, turizm, turist, gid (gid-tarjimon) yo'riqchi-yo'l boshlovchi, mustaqil turizm, ekskursiya, tog' turizmi, o'zgaruvchan turist, doimiy turist.

MEASURES TO DEVELOP EXTREME SPORTS TOURISM IN UZBEKISTAN AND TURN TRANSIENT TOURISTS INTO REGULAR TOURISTS

Abstract. The article presents information on the statistics of tourists visiting Uzbekistan, types of extreme tourism and measures aimed at their development, specifies approaches to turning temporary tourists into permanent ones, and also highlights other related issues aimed at developing extreme tourism.

Keywords: extreme, tourism, tourist, guide (guide-interpreter), guide-guide, independent tourism, excursion, mountain tourism, variable tourist, permanent tourist.

МЕРЫ ПО РАЗВИТИЮ ЭКСТРЕМАЛЬНОГО СПОРТИВНОГО ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ И ПРЕВРАЩЕНИЮ ВРЕМЕННЫХ ТУРИСТОВ В ПОСТОЯННЫХ ТУРИСТОВ

Аннотация. В статье представлена информация о статистике посещения Узбекистана туристами, видах экстремального туризма и мерах, направленных на их развитие, конкретизированы подходы к превращению временных туристов в постоянных, а также освещены другие сопутствующие вопросы, направленные на развитие экстремального туризма.

Ключевые слова: экстрим, туризм, турист, гид (гид-переводчик), гид-гид, самостоятельный туризм, экскурсия, горный туризм, переменный турист, постоянный турист.

O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma'qullangan turizm to'g'risidagi (turizm hujjatlari, shakllari, turlari, turistik industriyadagi xizmatlarning turlari, turistlarning va gidlarning, gid-tarjimonlarning, ekskursiya yetakchilarining va yo'riqchi-yo'l boshlovchilarning malakasini sertifikatlashtirish to'g'risidagi) qonundan kelib chiqqan xolda ishning dolzarbligi tanlab olindi.

Ishning dolzarbligi. O'zbekistonga tashrif buyuradigan turistlar statistikasini sport ekstrimal turizm turlariga jalb qilish orqali oshirishdagi o'ziga xos yondashuvlarni ishlab chiqish

va O'zbekistonga keladigan turistlar oqimini sport ekstrimal turizm turlaridan foydalangan holda yana xam kengaytirish.

Ishning maqsadi. O'zbekistonda sport ekstrimal turizm bilan shug'ullanishga sharoiti bor tabiiy maskanlarni aniqlash va ushbu maskanlardan maqsadli foydalanish.

Ishning vazifasi. O'zbekistonga tashrif buyuradigan chet ellik o'zgaruvchan turistlarni sport ekstrimal turizm turlari orqali o'zgaras turistlarga aylantirish va O'zbekistonning go'zal tabiatli, g'ayritabiiy xususiyatli, mehmondo'st millatli davlat ekanligini dunyoga yana ham keng miqyosda tanitish.

Sport sport ekstrimal turizm sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbaiga aylanib bormoqda, aynan O'zbekiston uchun xam.

Yurtimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, axolining jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb qilish orqali amalga oshirilmoqda. Bu targ'ibotni amalga oshirishda sport ekstrimal turizmining juda xam katta axamiyati bor.

Sport ekstrimal turizm, turli davlatlarda har xil yo'nalishda rivojlantirilmoqda. Bunga bir qancha davlatlar katta xarajatlar orqali erishayotgan bo'lsa, qolganlari shu joyning tabiiy imkoniyatlaridan foydalanish orqali erishmoqda. Turistlarni faqat bir yo'l bilan jalb etishdan ko'ra bir nechta yo'nalishlar orqali jalb etish va turli loyihalarni ishlab chiqish har qanday davlatga katta daromad keltirishi mubolag'a emas. Shuning uchun ham turistik sayoxatlarni kompleks holda tashkil etish masalalari dolzarbligi oshib bormoqda. Ayniqsa, tabiiy sharoitlarni mavjudligi bu sayoxatlarni amalga oshirishga ijobiy turtki bo'ladi. Hozirgi vaqtda ko'pgina mamlakatlarning barqaror rivojlanish kontseptsiyasida sport ekstrimal turizmining alohida o'rni bor. Xalqaro mutaxassislar tog'li va suvli mintaqalarning rivojlanishida sport ekstrimal turizmining ahamiyati juda ham yuqori ekanligini alohida e'tiborga olmoqdalar.

Mamlakatimizning so'lim maskanlarida sport ekstrimal turizmining turli tarmoqlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar talaygina. Shulardan eng asosiylari sport tog' turizmi, suv turizmi, xavo turizmi, avto va moto ekstrimal turizm xisoblanadi. Tog' relefi tekislikka nisbatan nafaqat landshaft, estetik jihatdan qulayliklarga ega, balki tog'ning sof musaffo havosi ultrabinafsha nurlarining ko'pligi, turli xil sport ekstrimal turlarini tashkil qilish imkoniyatlari bilan ajralib turadi.

Kelajakda O'zbekiston tog'larining turistik va rekreatsion ob'yektlari xalqaro ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Hozirda O'zbekiston xalqaro sport ekstrimal turizm raqobatchilik kurashida yutqazmoqda. Shulardan kelib chiqib, biz O'zbekistonda xalqaro sport ekstrimal turizmining o'chog'i bo'lishi mumkin bo'lgan tekislik, tog', suv va havo marshrutlarini rivojlanishi yo'lida amalga oshirish kerak bo'lgan ishlar xaqida maqsadli tizimli xarakatlarni boshlashimiz lozim.

Toza havoda va yirik shaharlardan uzoqda sport ekstrimal turizmi, bilan shug'ullanish orqali chet ellik fuqorolar, maktab o'quvchilari, talaba yoshlar, turli kasb soxalarida faoliyat olib boruvchi shaxslar, sport bilan shug'ullanuvchi shaxslar va boshqa axoli qatlamlari xar tomonlama sog'ligini mustaxkamlash, irodasini shakllantirish, ruxiyatini tetiklash orqali o'zlarida xayotiy xarakatga kerakli energiyaning yeg'ib olish va boshqa imkoniyatlarga ega bo'lishlari mumkin. Sayoxat insonda jismoniy madaniyatni shakllantiradi.

Mamlakatimiz o'zining keng va xilma-xil landshaftlari tufayli ekstremal sport turlari uchun juda ko'p imkoniyatlarni taqdim etadi, vaholanki bu sport turlari mamlakatda hali yangilik hisoblanadi. O'zbekistonda sport ekstrimal turizmi katta bo'lmagan, ammo faol rivojlanayotgan sohadir. O'zbekiston tog'lari alpinizm, tog' turizmi va qoyaga chiqish kabi faol dam olish turlarini sevuvchilar uchun juda qulay maskan xisoblanadi.

Tanqidiy yondashuvlar. Afsuski, O'zbekiston bu sohada hali ancha orqada ekanligini ko'rish mumkin. Xususan, Butunjahon turizm va sayohatlar bo'yicha kengashi (BTSK) tomonidan berilgan bahoga ko'ra, O'zbekiston sayyohlar tashrifi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida yaxshi natija ko'rsata olmayotganligi belgilab berilgan. Yurtimiz jahon sayyohlik bozorida o'z o'rniga ega bo'lishiga qaramasdan, turistlarga qulay sharoit yaratish, servis xizmatini yaxshilash, sayyohlik obidalarining jozibadorligini oshirish va reklamani kuchaytirish darajasi juda past.

Shuning uchun bu borada sezilarli o'sish haqida fikr yuritish ana shu omillarga bog'liq.

O'zbekiston muassasalarida sport turizmi sohasida malakali mutaxasislarning yetishmasligi bu soxaning sust rivojlanishiga tasirini yaqqol namoyon etib turibdi. Sport ekstrimal turizmini turli aholi qatlamlari orasida shug'ullanuvchilar sonini oshirish muhim vazifa hisoblanadi. Aynan hususiy tadbirkorlar O'zbekiston hududida sport ekstrimal turizmi bilan shug'ullanish uchun tabiiy qulay joylardan foydalanish imkoniyatini qo'lga kiritisa va shu joyga tashrif buyurgan turistlarga sport ekstrimal turizmi bilan shug'ullanishlariga shart sharoitlar yaratishsa bu O'zbekistonning ham moddiy ham ma'naviy dunyo miqiyosida har tomonlama rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Turizm davlat rahbari e'tiborida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev parlamentga Murojaatida barcha sohalar qatorida turizm sanoati borasida quyidagi fikrlarni bildirdi:

«Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O'zbekiston turizm sohasida dunyo bo'yicha ulkan salohiyatga ega bo'lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7300 dan ortiq madaniy meros obektlari mavjud va ularning qariyb 200 tasi YuNeSKO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning betakror tabiati, go'zal dam olish maskanlari imkoniyatlaridan foydalanib, yangi turistik yo'nalishlar ochish mumkin. Bu sohaga jahon brendlarini faol jalb etgan holda, biz sport turizmi, tog' turizmi, ziyorat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik turizm va bu sohaning boshqa tarmoqlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Bu borada davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini qo'llash sohani taraqqiy ettirishda keng imkoniyatlar ochishini hisobga olishimiz lozim.

Samarqand, Buxoro, Toshkent shaharlaridagi muqaddas qadamjolar va yodgorliklarni ziyorat qilish dasturini rivojlantirish va jadallashtirish zarur. Ichki turizm sohasidagi katta imkoniyatlarni ham to'liq ishga solish lozim».

Ishni rivojlantirishga doir talab va takliflar.

Oliy ta'lim muassasalarida tog' turizmi va sport sog'lomlashtirish turizmi yo'nalishlari tashkil etilib, bu soxaning malakali kadrlarini tayyorlash tizimi joriy qilinishi kerak va bu mutaxasislarga davlat tashkilotlarida ish o'rinlarini joriy qilish maqsadga muvofiq.

Tog' turizm sohasida faoliyat yuritmoqchi bo'lgan tadbirkorlarga imtiyozli kreditlarni berish hamda yer oldi-berdi ishlari yengillashtirilib, jahon andozalariga javob beradigan

mehmonxonalar sonini ko'paytirish, shu orqali raqobatni kuchaytirish, mehmonxona narxlarini arzonlashtirish kerak. Chunki turpaketlar narxi oshgan sayin, yurtimizga keladigan sayyohlar soni ham pasayib boradi. Buning natijasida ular ancha arzon narxlarga ega bo'lgan boshqa mamlakatlarga borishni afzal ko'rishadi.

«O'zbekiston havo yo'llari» bilan kelishgan holda, aviabiletleri onlayn xarid qilishni yo'lga qo'yib, shaffof onlayn xizmat ko'rsatish tizimini yo'lga qo'yish taklifi ham juda dolzarb masaladir. Rivojlangan mamlakatlarda aviakassa tushunchasi kundalik hayotda hech qachon ishlatilmaydigan so'z. Turizm taraqqiy etgan biror bir davlatda hech kim aviakassaga borib aviachipta xarid qilmaydi. Biror mamlakatga borgisi kelgan odam uyini tark etmagan holda hamma ishlarini kompyuterdan turib bajaradi.

- «O'zbekiston temir yo'llari»da ham biletleri onlayn sotib olish tizimini yana ham mukammallashtirilsa, nur ustiga a'lo nur bo'lardi.

Sport ekstrimal turizmi to'g'risida bitta ixcham «sayyohlar uchun qo'llanma» tayyorlanib, uni barcha tillarga tarjima qilib, arzon narxda yoki agarda imkoni bo'lsa, bepul turizm sayyohlik firmalariga tarqatish o'rinli.

O'zbekiston tog'lari haqida qiziqarli ma'lumotlar bilan fotoalbomni turizm sohasi mutaxassislari bilan hamkorlikda (ularning g'oyalari bilan) nashrga tayyorlab, turli tillarda yuqori sifatda chop etish. Uning narxi qimmat bo'lmasligi zarur va O'zbekistonda barcha kitob do'konlari hamda sayyohlar tashrif buyuruvchi do'konlarda sotishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Yurtimizning tog'li xududlarida yashovchi axolining, urf-odat va an'analari, milliy qadriyat va boy tarixiy merosi haqida hujjatli va badiiy filmlar konkursi e'lon qilinsa va eng saralarini rag'batlantirib, ular yaratgan filmlarni ingliz, nemis va boshqa tillarga dublyaj qildirib, xalqaro konkurslarda qatnashsak, turizmi rivojiga va sayyohlar soni oshishiga erishishimiz tayin.

Yilning eng go'zal tog' tabiati viloyati ko'rik tanlovlari e'lon qilinsa va har yili ularni rag'batlantirish yo'lga qo'yilsa, yurtdoshlarimiz o'z yashab turgan joyini tog' turizmini yaqin yillarda rivojlantirib yuborishi aniq. Rivojlangan Yevropa davlatlarida bu juda yaxshi yo'lga qo'yilgan. Xususan, Germaniyada har yilgi tanlovda ko'p joylarni mahalliy aholi tashabbusi kashf qiladi va rivojlantiradi.

Xulosa- Mustaqillik yillari O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport ishlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur ishlarni amalga oshirish uchun yetarli darajada huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va ularning ijrosi ta'minlandi. Davlatimiz raxbarlari tomonidan Turizmini rivojlantirish farmonlari qonun qarorlari va chora tadbirlari ijrosini ta'minlanishi bu yo'nalishni yurtimizda barqaror topishiga xizmat qiladi. Bu isloxlardan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki sport ekstrimal turizmi va sport sog'lomlashtirish turizmi yurtimizda rivojlantirilsa insonlarni salomatligi mustaxkamlanadi.

Sport ekstrimal turizmi va sport sog'lomlashtirish turizmidan inson yiliga ikki uch marta unumli foydalanish zarur. Zero, turizm nafaqat ichki xotirjamlik va yengillik, balki ham ma'nan, ham jismonan salomatlik garovidir.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2019-yil 16-aprelda qabul qilingan Senat tomonidan 2019-yil 21-iyunda ma'qullangan turizm to'g'risidagi qonunini.
2. Daurenov E.Yu, Turizm. Darslik. "O'zkitobsavdonashryoti" nashriyoti. 2020 y.
3. Daurenov E.Yu. Turizm. Darslik. T. TTvaESI nashriyoti. 2014 y.
4. Daurenov. E.Yu., Berdiyev Sh.O., Daurenova S.E., Berdiyeva D.A. Turistik sayrda jismoniy mashqlar va harakatli o'yinlar. O'quv uslubiy qo'llanma O'zDJTI 2014 y.
5. Daurenov E.Yu. Turizm. Darslik. "O'zkitobsavdonashryoti" 2016 y.